O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

ANDIJON VILOYAT XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI

# TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI INNOVATSION USULDA TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

RESPUBLIKA ONLAYN ILMIY-AMALIY KONFERENTSIYASI MATERIALLARI

# ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ, ИННОВАЦИОННЫМ МЕТОДОМ

МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ ОНЛАЙН НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

ANDIJON-2020
«Hayot nashri 2020» нашриёти

**UO‘K 37:001.895**
**KBK 74**
**T 12**
Jamoa. Ta’lim-tarbiya jarayonini innovatsion usulda tashkil etishning psixologik
asoslari. Matn.Andijon-2020.«Hayot nashri 2020» нашриёти. 256 bet

**TASHKILIY VA DASTURIY QO‘MITA**
**A.Jabborov,** Andijon viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi direktori v.b.
**O‘.Qurbonov,** Andijon VXTXQTMOHM o‘quv va ilmiy-metodik ishlari bo‘yicha director o‘rinbosari
**N.D.Qosimova,** pedagogika va psixologiya, ta’limologiyalari kafedrasi mudiri, p.f.n.
**Z.M.Kabilova,** tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri, f.f.n
**U.Sotvoldiyev,** ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi mudiri, f.f.n

**TAHRIR HAY’ATI:**
**1.N.D.Qosimova,** pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari nomzodi
**2. D.S.Qambarova,** pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi
**4. A.N.Mirzakarimova,** pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi
**3.Sh.S.Usmonova,** pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi
**2. B.R.Turg‘unov,** pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi
**1.N.A.Nishonov,** pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi

**TEXNIK MUHARRIR:**
**1. N.A.Nishonov,** pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi
**2. B.R.Turg‘unov,** pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi

**ISBN 978-9943-6302-3-9**

To‘plamga kiritilgan maqola va tezislardagi dalil, raqam va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’uldirlar. Konferensiya materiallari to‘plami Andijon viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazining navbatdan tashqari Ilmiy kengashi qarori (          ) bilan nashrga tavsiya etilgan.

**© Ta’lim-tarbiya jarayonini innovatsion usulda tashkil etishning psixologik asoslari.**

**© «Hayot nashri 2020» нашриёти.**

o'quvchini nutqiy qobiliyati ham o'sadi, ham baholash imkoni kengayadi. Ushbu metod quyudagicha ishlatiladi: biron bir tushuncha yoki mavzu olinadi, so'ng o'sha mavzu yuzasidan barcha o'zi bilgan ma'lumotlarni xotirasida jamlab, tarmoqlarga ajratadi. Fikrlar ko'pligi va aniqligiga qarab o'quvchini ushbu mavzu yuzasidan qanchalik bilimni idrok etganligi aniqlab olinadi. Bu usul o'quvchilarni ham darsga qiziqtiradi, ham mavzuni xotirasida yaxshi saqlab qolishlariga imkon yaratdi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dars bu san'at, mahorat. Uni qay darajada namoyon etish, san'atdan o'quvchilarga qay tarzda ta'sir ko'rsatish kuchi pedagogning qo'llayotgan innovatsion usullariga bog'liqdir.

## XALQARO TADQIQOT METODLARIGA TAYYORGARLIK: NAZARIYA VA AMALIYOT

*Nargiza Qosimova, AVXTXQTMOXM Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrasi mudiri, p.f.n*

*Damegul Arapbayeva- A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, p.f.n*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi Farmoni bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi" da uzluksiz ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, jahon ta'lim reytinglarida mamlakatimizni yuqori pogonalarga olib chiqish kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Jumladan, PISA (The programme for International Student Assesment) Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi reytingida O'zbekistonning 2021- yilda birinchi 70 talika, 2025- yilda 60 talikka va 2030- yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kirishi ko'zda tutilgan.

Endilikda boshlangich 4-sinf ta'lim oluvchilarining matnni O'qish va tushunish darajasini baholash uchun **PIRLS** tadqiqoti joriy etiladi;

TIMSS – tadqiqotidan 4 va 8 sinf ta'lim oluvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun foydalaniladi;

a. PISA – tadqiqoti 15 yoshli ta'lim oluvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalshishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun qo'llaniladi;

b. TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda pedagoglarning ish sharoitlarini o'rganish uchun joriy etish rejalashtirilgan.

O'zbekistonning xalqaro tadqiqotlarda qatnashishga kirishganiga bir yildan ko'proq vaqt o'tdi va o'tgan davr mobaynida qanday ishlar amalga oshirish kerak degan savol tabiyki paydo bo'ladi. Umumta'lim muassasalarining xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishni ta'minlashda ma'sul bo'lgan alohida tashkilot - Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi bilan nufuzli xalqaro tashkilotlar o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatilib, O'zbekistonning PISA va dasturlarida ilk marotaba 2021 yilda ishtirok etishni rejalashtirilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur xalqaro tadqiqot orqali o'quvchilarimizning bilimlarini baholash mezonlari va uslubi bugungi kunda mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida mavjud ichki va tashqi baholash mezonlari va topshiriqlaridan tubdan farq qiladi. Ya'ni, PISA dasturida 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy fanlardan savodxonligi, mazkur fanlar doirasida o'quv dasturlari va darsliklardan olgan ma'lumotlarni eslab qolganliklarini emas, balki egallagan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda qanchalik qo'llay olishlari va berilgan muammoli vaziyatlarga maqbul yechim topa olishlari hamda ijodiy-kreativ fikrlash qobiliyati baholanadi.

PIRLS dasturida esa, 4-sinf o'quvchilarining an'naviy matnlarni tez, ravon, ifodali o'qiy olish emas, balki darslikdan

tashqari berilgan matnlarni  o‘qib, uni qanchalik tushunishi va talqin qila olishi hamda fikrlarini ravon tilda yozma bayon eta olish ko‘nikmalari baholanadi.

O‘tgan davr mobaynida Xalqaro tadqiqotlarni joriy etish bo‘yicha  30 nafarga yaqin ma’sul xodimlar xorijiy mamlakatlarda malaka oshirdilar, 7 nafar xalqaro ekspert jalb qlinishi, Respublika bo‘yicha 260 nafar trener tayorlandi.

Viloyatimiz bo‘yicha hozirda ushbu xalqaro tadqiqotda qatnashish uchun tayyorgarlik ishlari keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan joriy yilning aperel  oyida  PISA –tadqiqotiga tayyorgarlik aprobatsiyasi  tajriba sinovdan o‘tishi rejalashtirilgan edi, Asaka tumani -57, Buloqboshi tumani -5, Paxtaobod tumani -19, Baliqchi tumani -36, Izboskan tumani -18, Andijon shaxri 23, 11 umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘tishi kerak edi, lekin pandemiya munosabati bilan joriy yilning mart  oyidan maktablar onlayn tizimiga  o‘tganligi  uchun bu ishlarni amalga oshirish vaqtincha to‘xtatildi.

Markazning  2020-yilning 10 -fevraldagi №7-x\s  buyrugiga binoan Andijon shaxar, Buloqobshi va Paxtaobod tumani xalq ta’limi muassasalarida  PISA, PIRLS, TIMSS, TALLIS xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rish holatini o‘rganish va metodik xizmat ko‘rsatish maqsadida fevral oyida  Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi  o‘qituvchilari tomonidan maktab faoliyati o‘rganildi hamda metodik xizmat ko‘rsatib kelindi. Ta’lim muassasalarida ijobiy ishlar ko‘p, lekin shunga qaramasdan yana qator  amalga oshirishimiz zarur bo‘lagn vazifalar xam mavjud.

Milliy markaz  tomonidan metodik ta’minlash ishlari amalga oshirilib kelmoqda. Yani , PISA dasturida 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy fanlardan savodxonligi, mazkur fanlar doirasida o‘quv dasturlari va darsliklardan olgan ma’lumotlarni eslab qolganliklarini emas, balki egallagan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda qanchalik qo‘llay olishlari va berilgan muammoli vaziyatlarga maqbul yechim topa olishlari hamda ijodiy-kreativ fikrlash qobiliyati baholanadi.

Shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun dasturlari xaqidagi mumuiy tushunchalar, namunaviy topshiriqlar, ularni bajarish bo‘yicha tavsiyalar va baholash mezonlarini o‘z ichiga olgan 4 nomdagi metodik qo‘llanmalar yaratildi. “Xalqaro tadqiqotlarda boshlangich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash”, “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash”, “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarining matematik savodxonligini baholash”, “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarining tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash” deb nomlangan, barcha umumta’lim maktablariga va boshqaruv organlariga yetkazib berilgan.

Dasturlarning tegishli yo‘nalishlari bo‘yicha topshiriqlar to‘plami, mashq daftarlari ishlab qiligan. Mazkur topshiriqlarda o‘quvchilarning mustaqil ishlab, nostandart vazifalarni yechish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam berishga mo‘ljallangan onlayn trenajyor dasturning dastlabki versiyasi ishga tushirilgan.

Respublikadagi pandemiya tufayli karantin sharoitiga qaramasdan, onlayn tarzda barcha tayanch maktablar uchun seminrlar tashkil etilib, unda Milliy markaz mutaxassislari tomonidan o‘qish, matematik va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik, ijodiy-kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholash va rivojlantirish mavzularida taqdimotlar o‘tkazilib kelinmoqda. Bundan tashqari, Milliy markaz va xalq ta’limi tizimidagi trener o‘qituvchilar bilan xamkorlikda xalqaro baholash dasturlariga munosib tayyorgarlik ko‘rish uchun ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganib chiqilgan xolda matematik, tabiiy va o‘qish savodxonligini, kreativ fikrlashni rivojlantirish hamda dasturlarning umumiy jarayonlari xaqida batafsil ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan 55ta qiziqarli vedeomontajlardan foydalanib darslar o‘tilmoqda.

# MUNDARIJA

## I SHO'BA
## XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI "'ISA, "IRLS, TIMSS" METODLARIGA TAYYORGARLIK ISHLARIGA INNOVATSION YONDASHUV


***1. Jabborov Odiljon***
Xalqaro tadqiqot metodlariga tayyor-garlik ko'rishda o'quvchilarni darsga qiziqtirishning innovatsion usullari ................................ 5
***2. Qosimova N., Arapbayeva D.***
Xalqaro tadqiqot metod-lariga tayyorgarlik:
nazariya va amaliyot ..................................................................... 8
***3. Matkarimov Akramjon***
Pisa baholash tadqiqoti va mustaqil ta'lim.......................... 12
***4. Yunusova Iroda***
Pisa - xalqaro baholash dasturi......................................... 15
***5. Tirkasheva M.***
Ta'lim sifati monitoringini tashkil etish
va o'tkazishda xalqaro baholash dasturidan foydalanish .......... 18
***6. Zokirova Zarifaxon***
Zamonaviy o'qituvchining innovatsion faoliyati.............. 22
***7. Idrisova Zulhumor***
Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanishning ahamiyati........................................................ 26
***8. Fozilova Barno***
Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarning ta'limsifati va samaradorligiga tasiri ........................................................ 29
***9. Nishonov To'lqinjon***
Xalqaro baholash tadqiqotlari pisa va timss metodlariga asoslangan loyiha.................................................................................... 32
***10. Nishonov Nodir***
Ta'limdagi innovatsion faoliyatda pedagogik imijining o'rni .. 37

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

ANDIJON VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI

“TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI INNOVATSION USULDA TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI” MAVZUSIDA O‘TKAZILGAN RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASIDA FAOL ISHTIROKI UCHUN

**ARAPBAYEVA DAMEGUL QURBANOVNA**

# SERTIFIKAT

BILAN TAQDIRLANADI

Direktor v.v.b. A.Jabbarov

2020-yil 23-noyabr